




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2023-YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz


Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 695,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 87,4 % ni tashkil etdi.

Yanvar
mlrd.so'm



Yanvar
FHI, %da



Farg'ona sh.	303,8	100,1
Qo'qon sh.	280,4	90,7
Quvasoy sh.	65,4	84,5
Marg'ilon sh.	94,5	106,6
Oltiariq	51,4	97,7
Qo'shtepa	102,2	98,5
Bag'dod	63,7	100,4
Buvayda	66,0	107,8
Beshariq	49,2	88,6
Quva	36,0	80,5
Uchko'prik	201,5	101,1
Rishton	10,6	54,7
So'x	5,9	91,0
Toshloq	166,5	62,9
O'zbekiston	40,7	95,8
Farg'ona t.	59,0	83,7
Dang'ara	58,9	97,8
Furqat	22,9	100,4
Yozyovon	16,8	107,9


mlrd.so'm

FHI, %da


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (1 004,7 ming so'm), Qo'qon shahrida (1 070,5 ming so'm) hamda Uchko'prik tumanida (839,2 ming so'm) Toshloq tumanida (785,4 ming so'm) ni tashkil etmoqda.

Yanvar
ming.so'm



Yanvar
o'sish sur'ati %da



Farg'ona sh.	1 004,7	98,1
Qo'qon sh.	1 070,5	89,3
Quvasoy sh.	668,2	82,8
Marg'ilon sh.	386,5	104,9
Oltiariq	232,2	95,7
Qo'shtepa	508,4	96,0
Bag'dod	282,1	98,4
Buvayda	276,3	105,5
Beshariq	208,0	87,1
Quva	134,1	79,1
Uchko'prik	839,2	98,8
Rishton	50,6	53,7
So'x	73,1	89,3
Toshloq	785,4	61,6
O'zbekiston	163,7	94,0
Farg'ona t.	264,3	81,7
Dang'ara	321,5	95,4
Furqat	186,2	98,3
Yozyovon	145,2	105,5

ming.so'm

o'sish sur'ati %da



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **1 547,8** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **91,3 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2023- yilning yanvar oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg'ona shahri (17,9 %), Qo'qon shahri (16,5 %), Uchko'prik tumani (11,9 %), Toshloq tumani (9,8 %) hamda Qo'shtepa (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Yozyovon tumanida (107,9%), Buvayda tumanida (107,8 %) hamda Marg'ilon shahrida (106,6 %) tumanlarida

FHI, %da



Ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **7,7 mlrd.** soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ini tashkil etdi.



Yanvar

2022-y. 5,4 mlrd. soʻm

2023-y. 7,7 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y. 51,6%

2023-y. 111,6%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **1 547,8 mlrd.** soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **91,3 %** ini tashkil etdi.

Yanvar

2022-y. 1 708,2 mlrd. soʻm

2023-y. 1 547,8 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y. 110,2%

2023-y. 87,6%



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi			Avtomobil benzini			Klinker sement		
2023		148,7	2023		2,7 r	2023		0,0
2022		112,4	2022		122,8	2022		89,6
2021		60,0	2021		33,7	2021		2,6 r
O'simlik yog'i (tozalangan)			Portlandsement			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2023		47,2	2023		17,7	2023		85,2
2022		46,7	2022		108,3	2022		81,5
2021		123,3	2021		121,2	2021		87,9
Neft bitumi			Aroq ming litr (100% spirt)			Uzum vinosi		
2023		21,0r	2023		170,4	2023		180,2
2022		33,3	2022		41,7	2022		11,8
2021		150,0	2021		93,8	2021		52,5
Karbamid			Paxta chigiti			Paxta linti		
2023		0,0	2023		65,4	2023		86,9
2022		0,0	2022		184,2	2022		120,6
2021		0,0	2021		25,6	2021		19,1

2023-yilning yanvar oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 33,3 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan 2,4 r ga ko'paygan), 33,6 ming tonna dizel yoqilg'isi (48,7 % kamaygan), 379,9 ming tonna kalava ip mahsulotlari (74,9%ga kamaygan) hamda 2180,9 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (60,8%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	12,4	33,3	20,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,3	16,4	-2,9
Paxta chigiti, ming t.	13,0	8,5	-4,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,1	1,0	-1,1

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,7 % (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 126,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 42,0% (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 71,4 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,3% (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,2 % (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,6 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 %ni (2022-yilning yanvar oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,2 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,8% (19,4%) va quyi texnologiyali – 62,0% (64,2%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 7,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 47,2 % ni tashkil etgan.


2022-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 13,4 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,9 % ga kamaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 52,1 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 124,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 128,4 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 329,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,6 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 39,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 5,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar oyida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,4 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 43,0 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 536,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 45,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 100,4 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 %, fizik hajm indeksi 150,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 88,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni, fizik hajm indeksi 113,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 130,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni fizik hajm indeksi esa 171,1 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 6,2 % ni, fizik hajm indeksi 127,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 96,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni fizik hajm indeksi esa 35,3 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 %ni, fizik hajm indeksi 118,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 32,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %ni fizik hajm indeksi esa 167,5 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 89,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 148,5 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 131,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni fizik hajm indeksi esa 271,9 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %, fizik hajm indeksi 57,4 %ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 9,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %ni fizik hajm indeksi esa 213,9 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 120,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,1% ini) tashkil etdi.


2023-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 mlrd. so'mga kamayganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	28,1	33,1	5,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	130,5	141,1	10,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,7	1,3	4,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,9	1,5	0,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,9 mlrd. so'm yoki 24,1 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,6 mlrd. so'm va 23,6 %ga ko'paygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 525,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 97,8%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,0%ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlari

*Jami iste'mol
mahsulotlaridagi ulushi,
%da*

2022-yil
yanvar



2023-yil
yanvar



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 4,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahri 13,8%, Uchko'prik tumanida 17,4% hamda Farg'ona shahrida 9,7%ga to'g'ri keladi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 91,2 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 17,4 %, Qo'qon shahrida 72,3 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 13,8 %i shuningdek, Farg'ona shahrida 51,0 mlrd.so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 9,7 %ni tashkil etdi.

Farg'ona sh.	51,0	119,9
Qo'qon sh.	72,3	107,2
Quvasoy sh.	9,2	100,3
Marg'ilon sh.	41,7	118,5
Oltiariq	14,6	100,2
Qo'shtepa	15,7	103,0
Bag'dod	42,5	92,3
Buvayda	16,6	104,5
Beshariq	40,1	81,4
Quva	19,6	100,0
Uchko'prik	91,2	104,5
Rishton	6,4	109,5
So'x	5,7	100,2
Toshloq	30,3	56,9
O'zbekiston	11,3	103,1
Farg'ona t.	9,8	105,2
Dang'ara	18,9	92,6
Furqat	20,7	94,4
Yozyovon	7,4	100,1

mlrd.so'm

O'sish sur'ati %da

464,9

mlrd.so'm


2022-yil yanvar

525,1

mlrd.so'm

2023-yil yanvar

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



2022-yil


113,5%

2023-yil

97,8%

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 133,4 ming.so'm bo'lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,9 %ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo'yicha Qo'qon shahrida – 276,1 ming.so'mga, Uchko'prik tumanida 379,7 ming so'm, Bag'dod tumanida 188,3 ming so'mga, Farg'ona shahrida esa 168,7 ming so'mga to'g'ri keldi.



Farg'ona viloyati

408,7 ming so'm

2022-yil yanvar

133,4 ming so'm

2023-yil yanvar





2022-yil 106,7%

2023-yil 95,9%


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 24,0 %, Bag'dod tumaniga 11,1% ni , shuningdek, Qo'qon shahri 13,9% ni, Farg'ona shahri esa 7,7 %ni tashkil etdi.




Hudular bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi shahar va tumanlar orasida Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 13,6%ni, Farg'ona shahrida 11,9% shuningdek, Uchko'prik tumanida 10,2 %ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **48,1%**




Farg'ona sh.	29,9	387,2
Qo'qon sh.	34,4	142,9
Quvasoy sh.	2,6	81,9
Marg'ilon sh.	21,7	144,2
Oltiariq	6,2	73,8
Qo'shtepa	10,2	128,2
Bag'dod	12,2	79,5
Buvayda	12,1	167,7
Beshariq	35,5	76,1
Quva	5,4	99,1
Uchko'prik	25,7	99,2
Rishton	3,3	112,1
So'x	2,4	150,4
Toshloq	21,3	43,4
O'zbekiston	3,4	80,2
Farg'ona t.	1,6	65,8
Dang'ara	11,7	104,7
Furqat	10,6	108,0
Yozyovon	2,4	86,6

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar oylarida


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 832,7 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,1 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, Soʻx, Yozyovon, Furqat tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Margʻilon shahri (96,5%), Uchkoʻpriq tumani (84,5%), Rishton tumani (77,3%), Bagʻdod tumani (71,9%), Dangʻara tumani (65,5%), tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (47,5%), Fargʻona tumani (19,7%), Toshloq tumani (16,2%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 11789 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 10070 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1334 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,2 %) Qo'qon shahriga, 1186 tasi (11,8%) Farg'ona shahriga, 998 tasi (9,9 %) Marg'ilon shahriga, 669 tasi (6,6%) Uchko'prik tumaniga, 615 tasi (6,1 %) Dang'ara tumaniga, 631 tasi (6,3 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022-yil

110 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023-yil

70 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022-yil

10033 dona

2023-yil

10070 dona

Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan